



UO'K: 635+632

POLIZ EKINLARI BIOTSENOZIDA UCHRAYDIGAN IKKI QANOTLILAR TURKUMINING TARQALISHI

Xolmurodov Abduxoliq Avazovich

mustaqil tadqiqotchi

Toshkent davlat agrar universiteti

Annotatsiya. Ushbu maqolada Qashqadaryo viloyati sharoitida poliz ekinlarining asosiy zararkunandalaridan biri qovun pashshasi – *Carpomya pardalina* Bigot zararkunandasining tarqalishi va bioekologiyasi hamda Qashqadaryo viloyati sharoitida ekilayotgan qovun, tarvuz, qovoq navlari ekilgan dalalarda ikki qanotlilar turkumi vakillari uchrashi qovun pashsha – *M.pardalina*., g'ovaklovchi pashsha – *L.bryoniae*., karam pashsha – *D.floralis*., qora pashsha – *M.domestica*., haqiqiy chivin – *C.pipiens*., drozofila meva pashsha- *D.melanogaster*., sirfid pashsha – *S.pyrastris*., kabi zararkunandalar uchragan haqida malumotlar keltirilgan.

Kalit so'zlar: qovun pashshasi – *Carpomya pardalina* Bigot), ikkiquanot, poliz, zararkunanda.

Аннотация. В данной статье представлены сведения о распространении и биоэкологии одного из основных вредителей бахчевых культур в условиях Кашкадарьинской области - дынной мухи *Carpomya pardalina* Bigot, а также о встречаемости представителей отряда двукрылых на полях, засеянных сортами дыни, арбуза и тыквы в условиях Кашкадарьинской области, где встречались такие вредители, как дынная муха - *M.pardalina*, губчатая муха - *L.bryoniae*, капустная муха - *D.floralis*, черная муха - *M.domestica*, настоящая комариха - *C.pipiens*, плодовая муха-дрозофила - *D.melanogaster*, москитная муха - *S.pyrastris*.

Ключевые слова: Дынная муха – *Carpomya pardalina* Bigot), двукрылый, огородный вредитель.

Abstract. This article presents information on the distribution and bioecology of one of the main pests of melon crops – the melon fly *Carpomya pardalina* Bigot – in the conditions of the Qashqadaryo region, as well as the occurrence of representatives of the order of dipterans in fields sown with melon, watermelon, and pumpkin varieties in the conditions of the Qashqadaryo region, where pests such as the melon fly (*M.pardalina*), sponge fly (*L.bryoniae*), cabbage fly (*D.floralis*), black fly (*M.domestica*), true mosquito (*C.pipiens*), fruit fly (*D.melanogaster*), and mosquito fly (*S.pyrastris*) were encountered.

Key words: Melon fly – *Carpomya pardalina* Bigot), a two-winged, garden pest.





KIRISH

Dunyoda poliz ekinlaridan yuqori hosil olish uchun zararkunandalarga qarshi kurash tadbirlarini qo'llash va hosilni saqlab qolish dolzarb vazifalardan hisoblanadi. FAO tashkiloti ma'lumotlariga ko'ra, qovun yetishtirish butun dunyo bo'ylab asosiy qishloq xo'jaligi sohasiga aylangan bo'lib, 2021 yilda 28 mln tonna mahsulot yetishtirilgan: Poliz ekinlari asosan Xitoy, Turkiya, Eron, Misr, Hindiston, Qozog'iston, AQSh, Ispaniya, Italiya, Guatemala va O'zbekiston davlatlarida eng ko'p yetishtiriladi. Poliz ekinlarining asosiy zararkunandalari hisoblangan ikki qanotlilar (Dipera) turkumi vakillaridan qovun pashsha va g'ovaklovchi pashsha qurtlari generativ va vegetativ organlarini zararlab, olinadigan hosilning 80-100% kamayishiga sabab bo'lmoqda. Ikki qanotlilar turkumi zararkunandalariga qarshi kurash tadbirlarini o'tkazmasdan yuqori hosildorlik olib bo'lmaydi.

Jahonda ekilayotgan poliz ekinlariga zarar keltiradigan zararkunandalarning rivojlanish bioekologiyasi, dinamikasi, zarar keltirish mezonini o'rganish asosida qarshi kurash usullarini ishlab chiqish hamda ilmiy-tadqiqotlar natijalaridan samarali foydalanish muhim ahamiyatga ega. Poliz ekinlaridan qovun (*Cucumis melo* L.), tarvuz (*Citullus lanatus* L.), qovoq (*Cucurbita maxima* L.) biotsenozida ko'plab zararkunandalar tarqalib, hosilning sifat va miqdoriga yuqori darajada salbiy ta'siri aniqlangan. Mazkur muammoni bartaraf etish uchun zararkunandalarning bioekologik rivojlanishiga ta'sir etadigan abiotik va biotik omillarini hisobga olgan holda qarshi kurash tadbirlarini ishlab chiqish bo'yicha ilmiy-tadqiqot olib borib, natijalarini joriy etish muhim ahamiyat kasb etadi.

Qovun pashshasi - *Carpomya pardalina* Bigot. Ikki qanotlilar (*Diptera*) turkumi, chipor qanotlilar (*Tephritidae* [*Trypetidae*]) oilasiga mansub. Yetuk zotining rangi och sariq, uzuligi 5,5-6,5 mm, ko'krak kismi oltinrang mayda tukchalar bilan qoplangan, ko'kraging ustki qismida 2 ta ochroq tasmaimon dog'lari mavjud. Boshqa pashshalardan ko'krak va qorin qismlarida bir nechta mayda dog'chalari mavjudligi bilan ajralib turadi. Qanotlari och sariq, ularning har birida 3 ta to'qroq sariq tasmaimon dog'lari bo'lib, ulardan 2 ta ichki qismidagilari to'g'ri, tashqi qismidagisi «V» harfi shaklida (1-rasm).



1-rasm. Qovun pashshasi: Yetuk zoti hamda sohta pillasi, zararlangan qovunning ichki va tashqi ko'rinishi



AGRO KIMYO HIMOYA VA O'SIMLIKLAR KARANTINI

Tuxumi oq, yaltiroq, uzunchoq shaklli, uzunligi 1 mm gacha. *Lichinkasi* oq, oyoqsiz, old qismiga qarab ingichkalashgan, yetilganlarining uzunligi 10 mm gacha, tanasining oxirgi segmentida 2 ta kichik o'smalari mavjud. *G'umbagi* sarg'ish-qo'ng'ir yoki qizg'ish-qo'ng'ir, uzunligi 7-8 mm, usti qattiq bo'lgan soxta pilla (pupariy) ichida rivojlanadi. Yetuk pashshaning tanasi uzunchoq silindr shaklli, uzunligi 8-10 mm, oq yoki sarg'ish tusli, terisi qalinlashmagan, boshi oddiy, peshona qismlari biroz rivojlangan, mo'ylovi 2 segmentli, dorsal tuklari T-1 – A-6 segmentlarida, A-8 dum segmentida, 10 ta mikroskopik sezgi tukchalari mavjud.

Hayot kechirishi. Pupariy ichidagi g'umbagi tuproqda 10-20 sm chuqurlikda, qishlaydi. Qishlagan g'umbakdan pashshalar ertapishar qovun gullash va meva tuga boshlash davrida (mayning ikkinchi yarmida) uchib chiqadi. Pashsha shira bilan oziqlanganidan so'ng otalanadi va qovun yoki boshqa poliz ekinlari yosh mevalarining qobig'ini tuxum qo'ygichi bilan teshib, uning tagiga bittadan, ammo ko'pincha bitta mevaga 20 ta va undan ham ko'proq tuxum qo'yadi. Tuxum qo'yish odatda mevalar diametri 3-5 sm bo'lganda boshlanadi. Bitta urg'ochi pashsha bir mavsumda 98-130 ta tuxum qo'yadi. Tuxum 2-8 kun davomida embrional rivojlanishdan o'tgach, ulardan lichinkalar chiqib, darhol meva ichiga o'tadi, meva eti bilan oziqlanib, uruqqacha yetib boradi va urug'ni ham yeydi. Ular 10-18 kun rivojlangandan so'ng, meva po'stini teshib tashqariga chiqadi va tuproqda 5-15 sm chuqurlikka ketib, pupariy ichida g'umbaklanadi. 10-18 kundan so'ng g'umbakdan 2-bo'g'in pashshasi chiqadi, urg'ochi zotlari otalanadi va yana tuxum qo'yadi. Bir bo'g'inining hayot davri 30 kuncha bo'lib, bir mavsumda pashsha Afg'onistonda 3-4, Qoraqalpog'istonda 2-3 bo'g'in beradi. Qishlashga ketish paytida lichinkalar tuproqda 10-20 sm chuqurlikda g'umbaklanadi. Lichinkalar qovun ichida harakatlenganda qovun etida zang tusli dog'lar paydo bo'ladi. Lichinkalar tashqariga chiqishida po'choqda paydo qilgan teshiklardan kirgan mikroorganizmlar ta'sirida qovun 5-7 kun ichida butunlay chiriydi va o'ta badbo'y hid chiqaradi.

NATIJALAR VA MUNOZARA

Qashqadaryo viloyati sharoitida ekilayotgan qovun, tarvuz, qovoq navlari ekilgan dalalarda ikki qanotlilar turkumi vakillari biotsenozning asosiy a'zolari sifatida tarqalganligi hisobga olindi. Ekinlar vegetatsiya davrining dastlabki fazalaridan boshlab, hosil yig'ib olingunga qadar qovun pashsha – *M.pardalina.*, g'ovaklovchi pashsha – *L.bryoniae.*, karam pashsha – *D.floralis.*, qora pashsha – *M.domestica.*, haqiqiy chivin – *C.pipiens.*, drozofila meva pashsha – *D.melanogaster.*, sirfid pashsha – *S.pyrastris.*, lar uchragan.

Qovun pashshasi O'zbekistonning boshqa viloyatlariga tarqalmasligi uchun ichki karantin chora-tadbirlarini ko'llash lozim, jumladan Qoraqalpog'istondan (va Xorazm viloyatidan) zararlangan poliz ekinlari mevalarini va ildiz tizimi puxta tozalanmagan daraxt nihollari va boshqa ekinlarni olib o'tish man etiladi. Insektitsid sifatida piretroidlar hamda karbofos (fufanon), sumition, aktellik yuqori samara beradi.





1-jadval

Poliz ekinlari biotsenozida uchraydigan ikki qanotlilar turkumi vakillarining turlari*(Qashqadaryo viloyati Kukdala tumani, 2022-2025 yy)*

№	Hasharotlar turlari	Lotincha nomi	Poliz ekinlari			Bodring
			Qovun	Tarvuz	Qovoq	
1	Qovun pashsha	<i>Myiopardalis pardalina</i> Big	++	++	++	++
2	G'ovaklovchi pashsha	<i>Liriomyza bryoniae</i> (Kaltenbach)	++	+	+	++
3	Karam pashsha	<i>Delia floralis</i>	+	+	+	+
4	Qora pashsha	<i>Musca domestica</i>	++	+	+	+
5	Haqiqiy chivin	<i>Culex pipiens</i>	+	+	+	+
6	Drozofila meva pashsha	<i>Drosophila melanogaster</i>	+	+	+	++
7	Sirfid pashsha	<i>Scaeva pyrastris</i> L	++	+	+	+

Izoh: + - hasharot dalada uchradi, ++ - dalada o'rtacha uchradi



2-rasm. Qashqadaryo viloyati Ko'kdala tumanidagi poliz ekilgan maydonlarda zararkunandalar monitoringi 2025-yy.



AGRO KIMYO HIMOYA VA O'SIMLIKLAR KARANTINI

XULOSA VA TAKLIFLAR

Agrotexnik tadbirlar: Poliz ekinlaridan sifatli va mo'1 hosil olish uchun fitosanitar toza, serhosil, qirg' oqchilik va zararli organizmlarga chidamli hamda joy iqlimiga mos nav va urug'larni ekish; belgilangan me'yorda mineral va organik o'g'itlar bilan o'z vaqtida oziqlantirish; ekin maydonlarini almashlab ekish, hududlarga mos navlarni tanlab ekishni tashkil etish; zararlangan poliz mahsulotlarini mexanik usulda 50-60 sm chuqurlikda xandaklar qazib, ularni ko'mib tashlash yo'li bilan yo'qotish. Poliz ekinlari ekilgan maydonlardan hosil yig'ib olingandan so'ng o'simlik qoldiqlaridan tozalash va chuqur shudgorlash.

Kimyoviy kurash tadbirlari: qovun pashshasiga qarshi o'simlikning gullash davridan boshlab gektariga 1 donadan feromon tutqichlarni qo'yish; kimyoviy preparatlarni ertalab soat 04:00 - 07:00 larda yoki kechqurun soat 20:00 - 21:00 larda qo'llanganda yuqori samaradorlikka erishiladi; birinchi ishlovni qovun pashshalari yoppasiga uchishni boshlaganda, poliz ekinlari gullab tugunchalar hosil qilgan davrda, keyingi ishlovlarni har bir avlodga kamida 2-3 marotaba tavsiya etilgan kimyoviy preparatlar bilan ishlov o'tkazish.

ADABIYOTLAR

1. Яхонтов В.В. Экология насекомых. – Москва: Высшая школа, 1969. – 487
2. S.A.Murodov-Umumiy entomologiya kursi "Mehnat" nashriyoti Toshkent 2003.
3. Xo'jayev SH.T., Xolmurodov E.A.-"Entomologiya, o'simliklarni zararkunandalardan uyg'unlashgan himoya qilish, qishloq xo'jalik ekinlarini himoya qilish va agrotoksikologiya asoslari. Toshkent, "Fan" nashriyoti, 2009.
4. Мирзалиева Х.Р. Биологический метод борьбы с вредителями сельскохозяйственных культур. - Ташкент: Матбуот, 1986. - 54с.
5. Arslonov M.T., Yusupov A.X., B.A.Sulaymonov. O'simliklarni biologik himoya qilish. - Toshkent: "Ilm ziyo", - 2003.
6. Sh.T. Xo'jaev, E.A.Xolmurodov. Entomologiya, qishloq xo'jalik ekinlarini himoya qilish va agrotoksikologiya asoslari. Toshkent. – 2019.